

O'DK 711

QO'NG'IROT SHAHRI TRANSPORT INFRASTRUKTURASINING MAVJUD HOLATI TAHLILI

Dots. Usmonov Quvvat Turdiyevich, Magistrantlar S.U Avazbekov, N.M Orazbayeva
Toshkent arxitektura qurilish universiteti, O'zbekiston
E-mail: Sardoravazbekov379@gmail.com

Annotasiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining chekka xududlarida istiqomat qiluvchi axolining xarakat jalligidan kelib chiqishini hisobga olgan holda, transport tizimini rejalashtirish va jamoat transportini tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan rejalashtirish zarurligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Transport infrastrukturasini, ko'chalar va yo'llar toifalari, shahar atrofi jamoat transporti, yo'lovchi tashish transporti, aholi punkti-ko'chalari tizimi

Аннотация: В данной статье освещается необходимость планирования транспортной системы, связанной с организацией общественного транспорта, с учетом того, что люди, проживающие в отдаленных районах Республики Узбекистан, являются активными участниками движения.

Ключевые слова: Транспортная инфраструктура, категории улиц и дорог, пригородный общественный транспорт, пассажирский транспорт, дорожная система населённых пунктов.

Abstract: This article is related to the planning of the transport system and the organization of public transport, taking into account the mobility of the population living in the remote areas of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: Transport infrastructure, categories of streets and roads, suburban public transport, passenger transport, road system of settlements

Murakkab iqlim sharoitidagi shaharlarda transport infrastrukturasini funksional taksimlashda shaxarsozlik taxlillari.

Hozirgi kunda yashash komfortligi, shaharlarning gullab-yashnashi dolzarb muammolardan biridir. Bizning oldimizga yashash muhitini yanada farovonlashtirish va shinamlashtirish maqsad qilib qo'yilgan. Zamonaviy shaharlarda xududini zamon va shaxarsozlik talablari asosida taksilash bugungi kun talabidir.

Shunday ekan zamonaviy shahar hududi o'z ichiga quyidagi funksional zonalarini kamrab oladi: yashash; sanoat; kommunal-omborxonalar zonalarini; tashqi transport zonasini; shahar oldi zonalarini; shahar chizig'idagi boshqa yerlaridan iborat bo'ladi. Hayot kechirishning farovon shahar muhiti – bu ma'lum bir ma'muriy chegaralarda joylashgan fazo. Bu fazoni bino-inshootlar bilan qurilishi uni predmetlar bilan to'ldiradi, aholining individual va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Bu esa shaharliklarning turmush tarzi darajasini oshirishga olib keladi [1].

Transport jahon moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining uchinchi muhim tarmog'idir. U sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlaridan farqli ravishda biron-bir xil mahsulot ishlab chiqarmasada, ishlab chiqarishning rivojlanishida juda katta o'rin tutadi. Axoliga har tamonlama ko'cha va yo'l tizimi atrofida joylashgan obektlarga bo'lgan talab va ehtiyojlarini to'la qondirish hamda komfort sharoitini yaratish zarur bo'ladi.

Transport infrastrukturasini – tashishning bajarilishi, unga xizmat ko'rsatilishi, odamlar, tovarlar tashilishini ta'minlovchi tarmoq va korxonalarining birlashishi jamlanmasi.

Transport, jamiyat hayotida juda katta rol o'ynaydi. Mamlakatning iqtisodiy farovonligi har tomonlama transport sohasining rivojlanganligiga chambarchas bog'liqdir, chunki u muhim bazaviy tarmoqdir.

Ko'cha-yo'l tarmog'ini loyihalashtirishda shahar hududining katta-kichikligi, asosiy qismlarining o'zaro joylashuv o'rni, tabiiy sharoitlari, hudud reliefi, iqlimi va boshqa ko'pgina

faktorlar hisobga olinadi. Amaliyotda ko‘cha-yo‘l tarmog‘ini rejalashtirishning radial-halqasimon, to‘g‘ri burchakli, to‘g‘ri burchakli-diagonal hamda aralash sxemalari ko‘p uchraydi.

Shaharning ko‘cha tarmog‘i bir tizimli emas, u turli toifadagi ko‘cha va yo‘llardan, shu bilan birga har xil maydonlardan iborat.


Aholi punkti-ko‘chalari tizimining rejaviy yechimi aholi punktining barcha funksional zonalarida orasida qulay aloqata‘minlash. Shaxarning markaziy va tarixiy zonalaridan avtomobil tranzit oqimini chetlatish, yuk va yengil avtomobillar oqimining ajratilishini ta‘minlashi lozim. Ko‘cha tarmog‘i shaharga tashqi avtomobil yo‘llaridan qulay kirishni ta‘minlashi kerak.[2]

O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik normalari va qoidalari – ShNQ 2.07.01-03* “Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish”ga binoan shahar ko‘cha va yo‘llari quyidagi toifalarga bo‘linadi (1-jadval):

1-jadval

Ko‘chalar va yo‘llar toifalari	Ko‘chalar va yo‘llarning asosiy vazifalari
I. Shahar ahamiyatidagi magistral ko‘chalar:	
To‘xtovsiz harakat	aholi punktining ichidagi funksional zonalararo aloqalar; tashqi avtomobil yo‘llari bilan aloqalar; transportning barcha turlarini o‘tkazish harakati to‘xtovsiz; magistral ko‘chalar bilan turli sathlarda kesishish;
Tartibga solinadigan harakat	aholi punkti rejaviy karkas o‘qini hosil qiladi; tartibga solinadigan magistrallar bo‘ylab aholi punkti rivojlanadi, ularda ommaviy qatnov ob‘ektlari joylashadi; ommaviy yo‘lovchi transporti, yengil avtomobillar va piyodalarning kuchli harakati bo‘ladi;
II. Tuman ahamiyatidagi magistral ko‘chalar	tumanlarning asosiy o‘qlari; boshqa magistral ko‘chalarga chiqish; barcha transport turlarining o‘tishi;
III. Mahalliy ahamiyatga ega ko‘chalar:	
Turar-joy qurilishidagi ko‘chalar	turar-joy tumanlarining ichida transport va piyoda aloqalar; magistral ko‘chalarga chiqish; yengil, maxsus va rayonga xizmat ko‘rsatuvchi yuk transportining o‘tishi;
Ishlab chiqarish va kommunal-ommabop zonalaridagi ko‘chalar	ishlab chiqarish va kommunal-ommabop zonalarida transport aloqalar; yengil, yuk va maxsus transportning o‘tishi;
Dahalardagi tor ko‘chalar	transport vositalarining turar-joy binolari va qurilish ob‘ektlariga borishi; yengil, maxsus va xizmat ko‘rsatuvchi yuk transportining o‘tishi.

Nukus va Qung‘irot shaharlarida transport sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining taqqoslasak: 2022- yilning 1- yanvar holatiga transport sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 71 tani tashkil qilib, tumandagi jami xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar kesimida 6,8 % ulushni qayd etdi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davrida 62 ta korxonalar va 6,2 % ulushga ega bo‘lgan (1-rasm).



1-rasm. Nukus va Qo'ng'iro't shaharlarida transport sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining taqqoslanishi

Qung'iro't Tumanida 2021 yilda avtomobil transportining barcha turlari tomonidan tumanida 7310,1 ming. yo'lovchilar tashilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 105,0 % ko'rsatkich qayd qilindi. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ulushi 5,3 % ni tashkil qilgan (2-rasm).



2-rasm. 2021-yil holatiga ko'ra Qung'iro't tumanida yo'lovchilar aylanmasi

Hududlarning barqaror rivojlanishi uchun tegishli sharoitlarni yaratish maqsadining muhim infratuzilmaga oid tarkibiy qismi transport infratuzilmasi hisoblanadi, va uning asosiy elementlaridan biri – yo'lovchi tashish transport tizimidir.

Yo'lovchi tashish transporti tizimini rivojlantirishning oliy shakli sifatida muvozanatlashtirilgan transport tizimi ajratib ko'rsatiladi.

Yo'lovchi tashish transportining intermodal tizimini yaratish–asosiy maqsadi – yo'lovchining tarmoq bo'ylab minimal darajada vaqt sarflagan holda maksimal qulaylik bilan tashkillashtirishdan iborat bo'lgan murakkab vazifa hisoblanadi. Transportning barcha turlarining maksimal darajadagi o'zaro aloqalari (yo'nalishlar va liniyalar faoliyatini, shaffof tariflarni muvofiqlashtirish, yo'lovchilarni habardor qilish kabilarni qamrab olgan holda) transport boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.[3]

Shahar bosh rejasida transportni rejalashtirishda yo'lovchi tashish transport turlarini tanlash muhim vazifa hisoblanadi. Shahar yo'lovchi tashish transport turlarining xususiyatlari 2-jadvalda keltirilgan.

Shahar yo'lovchi tashish transport turlarining asosiy xususiyatlari 2-jadval

Transport vositalari vositalar sredstva	Afzalliklari	Kamchiliklari
Avtobuslar	Yaxshi harakatchanlik. Ekspluatatsiyaga kiritishning qisqa muddatlari. Yo'nalishni o'zgartirishdagi tezkorlik. Bir marotabalik yuk tashish ehtiyoji tug'ilganda katta hajmdagi yuklarni tezkor sur'atlarda yetkazib berish. Yangi yo'nalishlarni yo'lga qo'yishda uncha katta bo'lmagan boshlang'ich harajatlar.	Yuqori darajadagi ekspluatatsion harajatlar. Atrof muhit ifloslanishining yuqori darajasi. Haydovchi mehnat faoliyati davomida yuqori darajadagi zo'riqish. Hrakatlanuvchi tarkib ishining ishonchlilik darajasining pastligi. Har kuni yoqilg'i quyish zarurati.

Shahar va shahar atrofi jamoat transporti yo‘nalishlarida yo‘lovchilar oqimini tekshirishda yo‘lovchilarni alohida belgilariga qarab toifalari va guruhlari bo‘yicha tashiladigan amaldagi tasnifdan foydalanish zarur bo‘ladi.

Xulosa: Mazkur maqolada o‘rganilgan, tahlil qilingan masalalar bo‘yicha quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin: O‘shbu transport soxasida xizmat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonini kupaytirish, mavjud bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar texnik bazasini takomillashtirish orqali aholiga qulaylik yaratish maqsadida xududlarda transport tizimini islox qilish uchun ko‘cha-yo‘l tarmog‘ini rivojlantirishda quyidagi yechimlarni tavsiya qilamiz:

-jamoat transportini rivojlantirish orqali chekka xududlarda yashovchi aholiga har tamonlama kamfort qulaylik yaratishni taminlash,

-ekologik murakkab xududlarda joylashgan shaxarlarda transport xarakatini muntazam tashkil etilishini boshqarish orqali qo‘shimcha ishchi o‘rinlarni yaratish,

-aholining obektlarga nisbatan xarakat jadalligidan kelib chiqib transport vositalarini taqsimlash (funktional zonalashtirish) zarur.

Adabiyotlar.

1. “Logistik tizimlarda yo‘lovchilar oqimiga transport xizmatiga ko‘rsatish jarayonlarini baholash va bashorat qilish” Dissertatsiya (DsC) Toshkent 2020 y.

2. Xo‘jaev B.A. Avtomobillarda yuk va passajirlar tashish asoslari, T.: O‘zbekiston, 2002. – 400 b.

3. ShNQ 2.07.01-03* - “Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish”. O‘zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi. Toshkent 2009 y.

4. “Shahar jamoat transporti xizmatini rivojlantirishning istiqbollari “ N.Q. Mirzayeva Magistr Toshkent 2019 y

5. ShNQ 2.05.02-07 Avtomobil yo‘llari. O‘zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi. Toshkent 2007 y.

6. TDTU.”Avtomobil yo‘llarini loyixalash, qurish va ekspluatatsil qilishning dolzarb muammolari va inavatsion texnologiyalari” ilmiy-texnik konferensiyasi. “Ekologik murakkab sharoitlarda joylashgan xududlarda ko‘cha va yo‘l tarmoqlarining shaxarsozlik yechimlari“ Q.T.Usmonov, S.B.Buranov, N.M.Orazbaeva Toshkent-2022

7. “Avtomobil yo‘llarini jixozlashda yangi innovatsion g‘oyalarini qo‘llash” (4r-173 “Qo‘ng‘irot-Mo‘ynoq avtomobil yo‘li”) magstrlik dissertatsiya ishi.Rashidov S.O‘.